



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864





MUNDARIJA				
1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна		Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi		O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmi rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich		Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich		Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi		Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich		Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich		Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li		Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович		АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi		Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna		Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich		Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich		Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna		O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли		Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович		Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович		Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat		Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli		Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна		Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





MOLIYAVIY RESURSLARNI SAMARALI BOSHQARISHDA ERP (ENTERPRISE RESOURCE PLANNING) MEXANIZMIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna

Mustaqil izlanuvchi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

E-mail: yulduzxon_mavlyanova@bk.ru

ORCID:0009-0002-1737-7165

***Annotatsiya.** Maqolada moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlaridan foydalanish istiqbollari tadqiq etilgan. Tadqiqotda ERP tizimlarining moliyaviy resurslarni boshqarish, risklarni baholash, kreditorlik qarzdorligini optimallashtirish, real vaqt rejimida moliyaviy prognozlash va natijadorlikni baholashdagi ahamiyati yoritilgan. “Dori-darmon” AJ misolida Digital Risk Scoring, Vendor-Managed Payments, ERP prognozlash modullari va Adaptiv KPI Matritsasining samaradorligi asoslab berilgan.*

***Kalit soʻzlar:** ERP, moliyaviy resurslar, raqamli transformatsiya, Digital Risk Scoring, Vendor-Managed Payments, moliyaviy prognozlash, KPI, korporativ boshqaruv.*

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ERP (ENTERPRISE RESOURCE PLANNING) ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РЕСУРСАМИ

Мавлянова Юлдузхон Тургуновна

Научный соискатель

Ташкентский государственный
экономический университет

E-mail: yulduzxon_mavlyanova@bk.ru

ORCID:0009-0002-1737-7165

***Аннотация.** В статье исследованы перспективы использования ERP-систем (Enterprise Resource Planning) в эффективном управлении финансовыми ресурсами корпораций. Рассмотрены вопросы оценки рисков, оптимизации кредиторской задолженности, финансового прогнозирования в режиме реального времени и оценки результативности деятельности. На примере АО «Dori-darmon» обоснована практическая эффективность механизмов Digital Risk Scoring, Vendor-Managed Payments, модулей финансового прогнозирования ERP и адаптивной KPI-матрицы.*

***Ключевые слова:** ERP-система, финансовые ресурсы, цифровая трансформация, Digital Risk Scoring, Vendor-Managed Payments, финансовое прогнозирование, KPI, корпоративное управление.*

PROSPECTS FOR USING ERP (ENTERPRISE RESOURCE PLANNING) MECHANISMS IN EFFECTIVE FINANCIAL RESOURCE MANAGEMENT

Mavlyanova Yulduzkhon Turgunovna

Postgraduate researcher

Tashkent State University of Economics

E-mail: yulduzxon_mavlyanova@bk.ru

ORCID:0009-0002-1737-7165

***Abstract.** This article examines the prospects of using Enterprise Resource Planning (ERP) systems for effective financial resource management in corporations. The study highlights the role of ERP systems in risk assessment, accounts payable optimization, real-time financial forecasting, and performance evaluation. Based on the case of Dori-darmon JSC, the practical effectiveness*





of Digital Risk Scoring, Vendor-Managed Payments, ERP forecasting modules, and the Adaptive KPI Matrix is substantiated.

Keywords: ERP system, financial resources, digital transformation, Digital Risk Scoring, Vendor-Managed Payments, financial forecasting, KPI, corporate governance.

Kirish

Aksiyadorlik jamiyatlarini kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirish masalasi zamonaviy bozor iqtisodiyotida alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Kapital bozorining rivojlanganligi korporativ tuzilmalar uchun uzoq muddatli, nisbatan arzon va diversifikatsiyalashgan moliyalashtirish manbalarini shakllantirish, korporativ boshqaruv mexanizmini takomillashtirish hamda investitsion faollikni kengaytirish imkonini beradi. Aksiyadorlik jamiyatlarida mavjud moliyaviy instrumentlardan foydalanish samaradorligini oshirish, ularning bozor infratuzilmasi bilan integratsiyasini rivojlantirish va investorlar uchun jozibadorligini oshirishga qaratilgan uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish hozirgi davrning eng dolzarb ilmiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarning zarurligi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda korporativ sektorda investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan davlat siyosatining muvaffaqiyati bilan uzviy bog‘liqdir. Kapital bozorining institutsional rivoji, undagi moliyaviy instrumentlar turlarining kengayishi va aksiyadorlik jamiyatlarining ushbu bozor bilan integratsiyalashuv darajasining oshishi mamlakatning umumiy investitsion muhitini yaxshilashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida korporativ tuzilmalar moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, xarajatlarni optimallashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon amaliyotida korporativ moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishning zamonaviy vositalaridan biri sifatida “Korxonalar resurslarini rejalashtirish” (ERP - Enterprise resource planning) mexanizmi keng qo‘llanilmoqda. Mazkur tizimlar korporativ tuzilmalarning moliyaviy, ishlab chiqarish, logistika, marketing va kadrlar faoliyatiga oid ma’lumotlarni yagona axborot maydonida integratsiyalash orqali boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotni raqamlashtirish, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar doirasida ERP tizimlarini joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, davlat ishtirokidagi yirik korxonalar va aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish hamda moliyaviy natijalarni prognozlashda ERP tizimlarining ahamiyati ortib bormoqda. Biroq ayrim yirik aksiyadorlik jamiyatlari amaliyotida moliyaviy resurslarni boshqarish jarayonlarining yetarli darajada raqamlashtirilmaganligi, moliyalashtirish manbalarini tanlashda risklarni baholash mexanizmining takomillashmaganligi, kreditor va debitor qarzdorliklarni boshqarishda zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish darajasining pastligi hamda moliyaviy natijalarni real vaqt rejimida prognozlash tizimlarining yetarlicha shakllanmaganligi kuzatilmoqda. Natijada moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi pasayishi, pul oqimlari muvozanatining buzilishi, operatsion xarajatlarning ortishi va moliyaviy risklarning kuchayishi holatlari yuzaga kelmoqda. Shuning uchun, moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP amaliyotidan foydalanish istiqbollarni tadqiq etish hamda ularning amaliy samaradorligini baholash bugungi kunda dolzarb ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda ERP tizimlarining kompaniyalar moliyaviy faoliyati samaradorligiga ta’siri, moliyaviy resurslarni boshqarish, xarajatlarni optimallashtirish va korporativ boshqaruv sifatini oshirish masalalari atroflicha tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida ERP tizimlarini moliyaviy boshqaruv jarayonlariga integratsiyalash





masalasi iqtisodchi olimlarning e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Kallunki J.P., Laitinen E.K. va Silvola H. tadqiqotlarida ERP tizimlarining moliyaviy hisobotlar sifati va boshqaruv qarorlariga ta'siri tahlil qilingan. Mualliflarning fikricha, ERP tizimlari kompaniyalarda moliyaviy ma'lumotlarning shaffofligini oshirish va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi [1]. Ruivo P., Oliveira T. va Neto M. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ERP tizimlarining kompaniya samaradorligiga ta'siri empirik baholangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ERP tizimlari moliyaviy xarajatlarni kamaytirish, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish va kompaniyalarning moliyaviy natijalarini yaxshilash imkonini beradi [2]. Haddara va Elragal ERP tizimlarining raqamli transformatsiyadagi rolini tadqiq etib, ularning moliyaviy prognozlash va risklarni boshqarish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Mualliflar ERP tizimlari kompaniyalarda strategik moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshiruvchi muhim vosita ekanligini asoslab bergan [3]. Cen Feng va Dhakir Abbas Ali tadqiqotlarida raqamli transformatsiyaning ERP tizimlariga ta'sirini tahlil qilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ERP tizimlarining raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi kompaniyalarda moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshiradi, biznes jarayonlarini avtomatlashtiradi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tezkor va aniq ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Mualliflar ERP tizimlari kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlovchi strategik platformaga aylanayotganligini ta'kidlagan [4]. Lipelis M. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ERP tizimlarini joriy etishning moliyaviy natijalarga ta'siri AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha va Xitoy kompaniyalari misolida baholangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ERP tizimlaridan foydalanish rejalashtirilmagan xarajatlarni kamaytirish, budjet og'ishlarini qisqartirish va moliyaviy hisobotlarning aniqligini oshirish imkonini beradi. Muallif ERP tizimlarini moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligini oshiruvchi muhim raqamli instrument sifatida baholaydi [5]. Abdul-Azeez A., Ihechere J. va Idemudia C. tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda ERP tizimlarining moliyaviy hisobotlar sifati va boshqaruv samaradorligiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ERP tizimlari moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirish, real vaqt ma'lumotlaridan foydalanish va moliyaviy shaffoflikni oshirish orqali resurslarni taqsimlash samaradorligini ta'minlaydi. Mualliflar ERP tizimlarining moliyaviy risklarni kamaytirish va strategik boshqaruv qarorlarini takomillashtirishdagi rolini alohida ta'kidlaydi [6].

Ibragimov tadqiqotlarida ERP tizimlarini korxonalarini raqamli transformatsiya qilishning muhim vositalaridan biri sifatida baholaydi. Olimning ta'kidlashicha, ERP tizimlari moliyaviy, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini yagona axborot muhitida integratsiyalash imkonini beradi. Bunday integratsiya korxonalarida moliyaviy axborotlarning shaffofligini oshirish, moliyaviy oqimlar harakatini real vaqt rejimida monitoring qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligini oshirishga xizmat qiladi [7]. Jilkina zamonaviy korxonalarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirishda ERP tizimining o'rni va ahamiyatini tadqiq etib, ushbu tizimlar moliyaviy hisob, budjetlashtirish, xarajatlarni nazorat qilish hamda pul oqimlarini tahlil qilish jarayonlarini yagona raqamli platformada birlashtirishini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, ERP texnologiyalarining joriy etilishi korxonalarida moliyaviy rejalashtirish sifatini oshirish, moliyaviy risklarni oldindan aniqlash va operatsion xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi [8]. Sirotkina raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarini boshqarishning transformatsion jarayonlarini tadqiq etib, ERP tizimlarini intellektual moliyaviy menejment tizimini shakllantirishning asosiy elementi sifatida baholaydi. Muallifning fikricha, ERP texnologiyalaridan foydalanish moliyaviy prognozlash sifatini oshirish, kapital tuzilmasini optimallashtirish hamda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi [9]. Ishlab chiqarish korxonalarida resurslarni rejalashtirish va xatarlarni boshqarish tizimi korxonaning barqarorligini, samaradorligini va raqobatbardoshligini ta'minlashda markaziy rol o'ynaydi. Shu sababli, zamonaviy metodlar va raqamli tizimlar bilan integratsiyalangan holda ushbu jarayonlarni tashkil etish korxonalar faoliyatining muvaffaqiyatli rivojlanishini kafolatlaydi [10].

Yuqoridagilar asosida aytish mumkinki, ERP tizimi korxonalarida moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligini oshirish, moliyaviy axborotlarning shaffofligini ta'minlash,





xarajatlarni optimallashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilashning muhim raqamli vositasi hisoblanadi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari ERP tizimlarining moliyaviy hisob, budjetlashtirish, pul oqimlarini boshqarish, moliyaviy prognozlash hamda risklarni boshqarish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda korporativ tuzilmalarda moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP tizimlaridan foydalanish istiqbollari baholashda tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, monografik kuzatish, iqtisodiy guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. “Dori-darmon” AJning 2015-2024 yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari dinamikasi asosida trend tahlili amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar

Korporativ tuzilmalarda ERP tizimini joriy etishning istiqbollari borasidagi tadqiqotimizni mamlakatimizdagi yetakchi farmatsevtika kompaniyalaridan biri bo'lgan “Dori-darmon” aksiyadorlik jamiyati misolida ko'rib chiqamiz. Avvalo ta'kidlash kerakki, keyingi yillarda jamiyatning moliyaviy ko'rsatkichlari ijobiy tendensiyalar bilan rivojlanish bosqichiga o'tgan bo'lsada, 2024-yilga kelib sof foyda hajmi 1,2 mlrd so'mni, sof foyda marjasi esa atigi 0,62 foizni tashkil etgan. Bu esa korxonada daromadlari hajmi saqlanib qolayotgan sharoitda rentabellik va moliyaviy natijadorlik ko'rsatkichlarida muayyan pasayish kuzatilayotganligini anglatadi (1-jadval). Jumladan, 2023-yilda mahsulot sotishdan sof tushum 282,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 192,2 mlrd so'mga tushgan yoki 32,0 foizga kamaygan. Shu bilan birga mahsulot tannarxi ham 256,9 mlrd so'mdan 168,3 mlrd so'mga qisqargan bo'lsada, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar 17,9 mlrd so'mdan 33,01 mlrd so'mga oshgan. Natijada sof foyda 8,2 mlrd so'mdan 1,2 mlrd so'mgacha kamaygan. Mazkur holat korxonada moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligini oshirish, xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirish va moliyaviy rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Alohida ta'kidlash joizki, “Dori-darmon” AJ farmatsevtika bozorida yetakchi mavqega ega bo'lib, kompaniya faoliyatini yanada takomillashtirish, moliyaviy va boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarurligi davlat organlari tomonidan ham qayd etilgan.

1-jadval

“Dori-darmon” aksiyadorlik jamiyati moliyaviy ko'rsatkichlari dinamikasi*(mlrd. so'm)²⁴

№	Ko'rsatkichlar	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
1.	Mahsulot sotishdan sof tushum	238,6	279,2	276,8	72,4	57,1	316,5	402,1	218,7	282,08	192,2
2.	Mahsulot tannarxi	222,5	258,01	258,8	74,6	31,6	281,03	378,2	199,3	256,9	168,3
3.	Yalpi foyda	16,06	21,2	18,02	2,1	-1,4	35,5	23,8	19,3	25,1	23,9
4.	Davr xarajatlari	30,6	38,3	40,1	30,7	44,1	44,5	44,7	44,1	35,1	47,5
5.	Yalpi foyda marjasi (%)	6,73	13,7	6,5	2,9	-2,4	11,2	5,91	20,1	8,89	12,4
6.	Asosiy faoliyatdan olingan foyda	30,02	37,6	35,03	-5,56	71,5	62,5	41,08	10,67	22,5	5,9
7.	Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar	10,15	11,6	15,3	7,4	62,5	5,8	5,6	10,2	5,1	40,4
8.	Moliyaviy faoliyat bo'yicha qilingan xarajatlar	7,88	12,3	31,5	55,7	4,1	10,98	8,7	11,5	17,9	33,01
9.	Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda	32,2	36,9	18,8	-53,8	-48,3	57,4	37,9	9,4	9,6	1,4
10.	Soliq to'lagunga qadar foyda	32,2	36,9	18,8	-53,8	-48,3	57,4	37,9	9,4	9,6	1,4
11.	Sof foyda	25,07	28,5	10,4	-56,2	-48,3	53,7	32,6	8,05	8,2	1,2
12.	Sof foyda marjasi (%)	10,05	10,2	3,75	-77,6	-84,5	16,9	8,1	3,6	2,9	0,62

²⁴ *<https://new.openinfo.uz/uz/?tab=finance&page=1&org=%22DORI-DARMON%22+aksiyadorlik+kompaniyasi> - ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi





Xususan, korxonada faoliyatini tahlil qilish natijalarida debitor va kreditor qarzdorliklarni nazorat qilish hamda biznes jarayonlarini raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlari mavjudligi ko'rsatilgan.

Mazkur muammolarni bartaraf etish hamda moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida biz tomondan tadqiqot doirasida ERP tizimlari asosida bir qator innovatsion moliyaviy boshqaruv mexanizmlari ishlab chiqildi va “Dori-darmon” AJ amaliyotiga joriy etildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligi ko'p jihatdan moliyalashtirish manbalarini tanlash sifati, qarzdorlik darajasi, moliyaviy prognozlash aniqligi hamda natijadorlikni baholash tizimining mukammalligi bilan belgilanadi.

Shu nuqtai nazardan, birinchi navbatda, tashqi moliyalashtirish manbalarini tanlashda risklarni raqamli baholash (Digital risk scoring) tizimi ishlab chiqildi va ERP platformasiga integratsiya qilindi. Mazkur tizim orqali kreditlar, obligatsiyalar, lizing, faktoring va boshqa moliyalashtirish manbalari risk darajasi 0 dan 100 gacha bo'lgan ballar asosida baholandi. Natijada moliyalashtirish manbalarini tanlashda subyektiv yondashuvlar qisqarib, moliyaviy qarorlar qabul qilish sifati sezilarli darajada yaxshilandi. Amaliy natijalarga ko'ra, 2023–2024-yillar davomida tashqi moliyalashtirish manbalari bo'yicha umumiy risk darajasini 15-20 foizgacha kamaytirishga erishildi. Bu esa ERP tizimlarining moliyaviy risklarni boshqarish va kapital tarkibini optimallashtirishdagi ahamiyatini yaqqol namoyon etdi.

Shu bilan birga biz tomondan, jamiyatning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri kreditorlik qarzdorligining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi ekanligi aniqlandi. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida ERP tizimlariga integratsiyalashgan Sotuvchi tomonidan boshqariladigan to'lovlar (Vendor-managed payments-VMP) modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelda to'lov muddatlarini ta'minotchilar tomonidan shakllantirilgan jadval asosida boshqarish nazarda tutilgan bo'lib, natijada pul oqimlari harakati prognoz asosida va boshqariladigan holatga keltirildi. Amaliyotga joriy etish natijasida jamiyatning kreditorlik qarzdorligi 54,3 mlrd so'mga kamaydi va umumiy qarzdorlik hajmi 46,4 foizga qisqardi. Bu esa jamiyat likvidligini mustahkamlash, moliyaviy intizomni kuchaytirish va ta'minotchilar bilan uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish imkonini berdi.

ERP tizimlaridan foydalanishning yana bir muhim yo'nalishi moliyaviy resurslarni real vaqt rejimida boshqarish imkoniyatini beruvchi prognozlash modullarini joriy etish bilan bog'liq bo'ldi. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan raqamli prognozlash modullari korxonaning pul oqimlari, ombor zaxiralari, xarajatlar va moliyalashtirish ehtiyojlarini oldindan aniqlash imkonini berdi. Mazkur modul ERP tizimiga integratsiya qilingandan so'ng saqlash xarajatlarini optimallashtirish hisobiga 2024-yilda qo'shimcha 1038,5 mln. so'm sof foyda olinishiga erishildi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich reja parametrlariga nisbatan 102,3 foizni tashkil etganligi ERP tizimlarining moliyaviy rejalashtirish aniqligini oshirishdagi yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida “Adaptiv KPI Matritsasi” ishlab chiqildi. Mazkur modelning asosiy afzalligi shundan iboratki, u tizim korxonalarini va javobgarlik markazlari kesimida KPI ko'rsatkichlarining ustuvorligini avtomatik ravishda belgilaydi hamda ERP tizimi orqali ularning bajarilishini real vaqt rejimida monitoring qiladi. Natijada korxonada faoliyatining barcha bo'g'inlarida natijadorlik ko'rsatkichlari yagona raqamli platforma asosida boshqarila boshlandi. Taklifni amaliyotga joriy etish natijasida 2024-yil yakunlari bo'yicha KPI rejasini 102 foizga bajarildi, bu esa moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi va boshqaruv qarorlarining natijadorligi sezilarli darajada oshganligini ko'rsatadi.

Amalgama oshirilgan tadqiqot natijalari ERP tizimlarining korporativ moliyaviy boshqaruvdagi rolini yangi bosqichga olib chiqishini ko'rsatdi. Xususan, “Risklarni raqamli baholash” tizimi moliyalashtirish manbalari riskini kamaytirishga, Vendor-Managed Payments kreditorlik qarzdorligini optimallashtirishga, real vaqt prognozlash modullari moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga hamda Adaptiv KPI Matritsasi korxonada





natijadorligini baholashning zamonaviy mexanizmini shakllantirishga xizmat qildi. Mazkur natijalar ERP tizimlarining nafaqat axborot texnologiyasi, balki korporativ moliyaviy resurslarni strategik boshqarishning kompleks instrumenti sifatida namoyon bo‘layotganligini tasdiqlaydi. Bu esa aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish va korporativ boshqaruv samaradorligini ta‘minlashning omillaridan biri hisoblanadi.

Xulosa

ERP tizimlari korporativ moliyaviy boshqaruvning zamonaviy raqamli platformasi sifatida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. ERP tizimlari moliyaviy hisob, budjetlashtirish, xarajatlarni nazorat qilish, pul oqimlarini boshqarish va moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayonlarini yagona axborot maydoniga birlashtiradi. Natijada boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligi va sifati oshadi, ma‘lumotlar takrorlanishi kamayadi hamda moliyaviy axborotlarning shaffofligi ta‘minlanadi. Bu esa aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, operatsion xarajatlarni optimallashtirish va korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Bugungi kunda SAP ERP, Oracle ERP Cloud, Microsoft Dynamics 365, Odoo ERP va boshqa korporativ platformalar dunyoning yirik kompaniyalari tomonidan moliyaviy resurslarni boshqarish, pul oqimlarini prognozlash, risklarni monitoring qilish va strategik rejalashtirish maqsadlarida qo‘llanilmoqda. Xususan, ERP tizimlari real vaqt rejimida moliyaviy ma‘lumotlarni qayta ishlash, kreditor va debitor qarzdorliklarni nazorat qilish, budjetlashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda moliyaviy risklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan va ERP tizimiga integratsiya qilingan Digital Risk Scoring mexanizmi tashqi moliyalashtirish manbalarini tanlash samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Mazkur model asosida kreditlar, obligatsiyalar, lizing va boshqa moliyalashtirish manbalari risk darajasiga ko‘ra baholandi. Natijada 2023-2024 yillar davomida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha umumiy risk darajasi 15-20 foizgacha qisqartirildi. Bu esa korxonalarda kapital tarkibini optimallashtirish, moliyalashtirish xarajatlarini kamaytirish hamda investitsion qarorlar sifatini oshirish imkonini beradi. ERP tizimlari asosida risklarni avtomatlashtirilgan baholash korporativ moliyaviy boshqaruvni takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

ERP tizimlariga real vaqt rejimida moliyaviy prognozlash modullarini joriy etish moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ERP asosidagi prognozlash modullari korxonaning pul oqimlari, zaxiralari va xarajatlarini oldindan baholash imkonini yaratdi. Natijada saqlash xarajatlarini optimallashtirish hisobiga 2024 yilda 1038,5 mln so‘m miqdorida qo‘shimcha sof foyda olishga erishildi. Xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilayotgan ushbu yondashuvni O‘zbekiston korporativ sektorida keng joriy etish moliyaviy rejalashtirish aniqligini oshirish, budjet og‘ishlarini kamaytirish hamda korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kallunki J.P., Laitinen E.K., Silvola H. Impact of Enterprise Resource Planning Systems on Management Control Systems and Firm Performance // International Journal of Accounting Information Systems. - 2011. - Vol. 12, No. 1. - Pp. 20-39.
2. Ruivo P., Oliveira T., Neto M. Examine ERP Post-Implementation Stages of Use and Value: Empirical Evidence from Portuguese SMEs // International Journal of Accounting Information Systems. - 2014. - Vol. 15, No. 2. - Pp. 166-184.
3. Haddara M., Elragal A. ERP Lifecycle: A Retirement Case Study // Information Resources Management Journal. - 2013. - Vol. 26, No. 1. - Pp. 1-11.
4. Feng C., Ali D.A. Study the Impact of Digital Transformation on Enterprise Resource Planning // Accounting and Corporate Management. - 2024. - Vol. 6, No. 2. - Pp. 10-15.





5. Lipelis M. Innovative Budgeting Strategies in the Digital Era: Leveraging Enterprise Resource Planning Systems for Financial Performance Improvement // Applied Studies in Economics and Management Journal. – 2024. – Vol. 3, No. 2. – Pp. 45-61.
6. Abdul-Azeez A., Ihechere J., Idemudia C. Enhancing Financial Reporting and Management Efficiency through Enterprise Resource Planning (ERP) Systems: A Theoretical Review for Large-Scale Energy Operations // International Journal of Advanced Economics and Finance. - 2024. - Vol. 8, No. 4. - Pp. 112-128.
7. Ибрагимов А.Р. Этапы внедрения ERP-систем на предприятиях среднего бизнеса//Экономика и бизнес: теория и практика. - 2024. - № 5.
8. Жилкина А., Жилкин О. ERP-системы в управлении современными финансами//Экономика и предпринимательство. - 2022. - № 6.
9. Сироткина Н.В. Цифровая трансформация финансового менеджмента предприятий: современные тенденции и перспективы // Регион: системы, экономика, управление. - 2023. - № 4.
10. Usmanova N.M. Ishlab chiqarish korxonalarida resurslarni rejalashtirish va xatarlarni boshqarish// Journal of marketing, business and management. Volume 4, Issue 5 – 2024.
11. Metrick A., Yasuda A. Venture Capital and the Finance of Innovation. Risk Management and Innovation Investment Strategies // Journal of Corporate Finance. - 2021. - Vol. 68
12. Kerr W.R., Nanda R., Rhodes-Kropf M. Entrepreneurship as Experimentation // Journal of Economic Perspectives. - 2022. - Vol. 36, No. 3. - Pp. 67-92.

